

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

SOBIROV SHAXZOD OZOD O'G'LI

**XALQ TA'LIMI MUASSASALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA SAMARALI RIVOJLANTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
философии по экономическим наукам**

Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li

Xalq ta'limi muassasalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali
rivojlantirish..... 5

Собиров Шахзод Озод угли

Эффективное развитие народных образовательных учреждений на
основе цифровых технологий 25

Sobirov Shakhzod Ozod ugli

Effective development of public educational institutions based on digital
technologies..... 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 52

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

SOBIROV SHAXZOD OZOD O'G'LI

**XALQ TA'LIMI MUASSASALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA SAMARALI RIVOJLANTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5664 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Nazarova Fotima Xakimovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Tashmuxeimedova Karima Samatovna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 24-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (399-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 -yil "14" yanvar kuni tarqatildi.
(2026 -yil "14" yanvar kuni 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.To'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori,
professor

Sh.Dj.Ergashxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining rivoji va ijtimoiy sohalar taraqqiyoti tobora raqamli texnologiyalarga asoslanib borishi sharoitida oliy ta'lim tizimi, Maktabgacha va maktab ta'lim tizimidagi muassasalar faoliyatining samaradorligini oshirish iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatliligi ko'ra tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu jihatdan aksariyat davlatlarda u yoki bu darajada ta'lim sarflarini moliyalashtirish davlat moliyasi hisobidan amalga oshirilmoqda. "OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, boshlang'ich va past-orta ta'lim muassasalarining o'rtacha 90–95 foizi davlat mablag'lari orqali ta'minlanadi. Ayrim davlatlarda bu ko'rsatkich 100 foizni tashkil etadi"¹. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining raqamli texnologiyalarga ko'ra ustuvor rivojlanishi sharoitida istiqbol maqsadlaridan kelib chiqqan holda maktab ta'lim tizimidagi muassasalarning faoliyati samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda ijtimoiy sohalar rivojida ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra muhim ahamiyat kasb etishi mazkur tizimdagi muassasalarning faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada sohaga joriy qilinayotgan innovatsion usullarning samaradorligini baholash asoslarini takomillashtirish, ta'lim yo'nalishida raqamli standartlarga ko'ra samarali raqamli amaliyot natijadorligini baholashning aniqlik darajasini oshirish, raqamli xizmatlarning prognoz qiymatlarini aniqlash kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan ta'lim tizimini raqamli texnologiyalarga ko'ra ustuvor darajada rivojlantirish, yangi avlod texnologik darajadagi elektron xizmat ko'rsatishda jadal rivojlantirgan holda aholi turmush sifatini oshirish kabilar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ta'lim mazmuni va metodikasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion usullar bilan boyitish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada infratuzilmani yaxshilash, ta'lim muammolari yuzasidan loyihalarni asoslash, IT tuzilmalariga investitsiyalarni maqsadli jalb qilgan holda ulardan samarali foydalanish, ta'lim tizimida raqamli xizmatlar hajmi va tarkibini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning

¹ <https://mirbeviz.com>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘tib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro tajribada T.W.Schultz, J.Mincer, G.Psacharopoulos, A.H.Patrinis, H.Luyten, A.Visscher, B.Witziers, I.Burusic, T.Babarović, M.Velić, T.Knighton, B.Patrick, E.Hanushek, V.Lavy, K.Hitomi³va boshqalar ta‘lim jarayonini optimallashtirish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishish, past daromadli mamlakatlarda maktab ta‘limining past darajalarida va ko‘pincha ayollarda yuqoriroq ko‘rinishini⁴ tadqiq etganlar.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari N.B.Shugal va A.E.Kononovanning fikricha, “Bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlardan tashqari, aholi va tashkilotlar tegishli xarajatlar deb ataladigan - asbob-uskunalar, o‘quv adabiyotlari, kiyim-kechak, transport, ijaraga olingan uy-joy uchun haq to‘lash va boshqalarni o‘z zimmalariga olishi”⁵ haqida tadqiqotlar olib borishgan.

Ta‘lim tizimini boshqarish va zamonaviy interfaol uslublarni joriy etish muammolarini ayrim yo‘nalishlari O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, M.Haydarov, N.Norqobilov, D.Raxmonov,⁶ tadqiqotlarida atroflicha qarab chiqilgan. Lekin ta‘kidlash lozimki, ayni vaqtda mamlakatimiz ta‘lim tizimidagi muassasalarning iqtisodiy faoliyati xususiyatlari va faoliyatini samaradorligi masalalari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida

³ Schultz T.W. Investment in Human Capital: the Role of Education and of Research. N.Y., P 82-83.// Mincer, Jacob. "The distribution of labour incomes: a survey with special reference to the human capital approach." Journal of Economic Literature 8, no. 1 (March): 1-26.// Psacharopoulos, George, and Harry A. Patrinos. 2004. "Returns to investment in education: a further update." Education Economics 12, no. 2 (August):111-134.// Luyten, H.; Visscher, A.; Witziers, B. School Effectiveness Research: From a Review of the Criticism to Recommendations for Further Development. Sch. Eff. Sch. Improv. 2005, 16, 249–279. // Burusic, J.; Babarović, T.; Velić, M. School Effectiveness: An Overview of Conceptual, Methodological and Empirical Foundations. In; 2024; pp. 5–26 ISBN 978-3-319-29879-5.// Knighton, Tamara, and Patrick Bussière. 2023. "Educational Outcomes at Age 19 Associated with Reading Ability at Age 15." Culture, Tourism and the Centre for Education Statistics Research papers, Ottawa, Statistics Canada June.// Hanushek, Eric A., Victor Lavy, and Kohtaro Hitomi. 2024. "Do students care about school quality? Determinants of dropout behavior in developing countries." Working Paper 12737, National Bureau of Economic Research, Cambridge, MA, December

⁵ Н.Б.Шугаль, А.Е.Кононова. “Финансовый Гольфстрим” Аккредитация в образовании. февраль 2023,стр. 30

⁶ Рахмонов Д.А. Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш муассасаларини молиялаштиришни такомиллаштириш: и.ф.н. ... автореферат. – Т.: БМА, 2022. – 25 б. Норқобилов Н.Н. Таълим тизимини бюджетдан ташқари молиялаштириш ва кадрлар тайёрлашда маркетингнинг ўрни//Замонавий таълим журнали. – 2020. -№8. – Б.36-41. Хайдаров М.Т. Умумтаълим мактабларининг бир ўқувчисига харажатлар базавий меъёрларини аниқлаш//Иқтисод ва молия журнали. –Т.: - 2016. - №3. –С.49-58.

o'rganilmagan. Bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-59 "Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston mehnat bozorining adaptiv moslashuvchan transformatsiyasi va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tashkil etish modellari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalq ta'limi muassasalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalq ta'limini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va sohani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar klassifikatsiyasini tadqiq etish;

O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tizimlashtirish va tizimdagi muassasalarning statistik ma'lumotlarini taqqoslash;

jahondagi xalq ta'limini rivojlantirishning joriy tendensiyalari va O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan maktablarning amaldagi holatini tahlil qilish;

maktab bitiruvchilarining universitetga kirishga tayyorligini aniqlash, natijadorligini oshirish va Xalq ta'limi muassasalarining ish faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish;

xalq ta'limini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi umumta'limi va ixtisoslashtirilgan maktablarning raqamli ta'lim faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti xalq ta'limi muassasalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, tizimli tahlil, mantiqiy va taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktab bitiruvchilarining universitetga kirishga tayyorligini aniqlash va natijaviy unumdorligini oshirishning sxematik ko'rinishining iqtisodiy-ijtimoiy hamda axborot kuzatuvlar asosida mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan;

bitiruvchilarning universitetga kirish darajasini baholashda fan-qiziqish-o'zlashtirish integrallashgan modeliga Sertifikat Kompetensiya Indeksi kiritish asosidagi na'munaviy usuli taklif etilgan;

bitiruvchilarining universitetga kirishdagi umumiy natijalarini ijtimoiy-iqtisodiy kuzatuvlar asosida 2030-yilga qadar umumiy qamrov darajasining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

<https://uzbmb.uz/> platformasidagi verifikatsiya tizimini Education Management Information System platformasi bilan integratsiyalashgan jarayonining samarali rivojlantirish usuli ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Tahlillar natijasida nodavlat umumta'lim muassasalari faolligini ortib borayotganligi, maktablarda pedagogik tarkibi ham kengayayotgani, aholisi zich bo'lgan hududlarda nodavlat maktablar o'quvchi oqimini kamayligi, muqobil sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim ro'l o'ynayotganligi kuzatilgan;

Butun dunyo bo'ylab maktablar, universitetlar va xususiy ta'lim loyihalari tomonidan etilayotgan ta'lim trendlari, qo'shni mamlakatlardagi ta'limning davomiyligi, ta'lim tizimi sifatini baholash ko'rsatkichlari o'rganilgan;

Ixtisoslashgan maktablar, ularga qarashli o'quvchilar, o'qituvchilar va kirish imtixonlaridagi bir o'ringa talabgorlarning soni kabi statistik ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan usul va nazariy yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqotning axborot bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Milliy Statistika qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy ma'lumotlaridan olinganligi hamda taklif va tavsiyalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ta'lim tizimidagi muassasalar faoliyatini samaradorligini oshirishning nazariy-konseptual asoslari hamda yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy, shuningdek mazkur tarmoqni tartibga soluvchi boshqa davlat tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan maqsadli hujjatlarni tayyorlashda va amaliyotda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalq ta'limi muassasalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

maktab bitiruvchilarining universitetga kirishga tayyorligini aniqlash va natijadorligini oshirishning sxematik ko'rinishining iqtisodiy-ijtimoiy va axborot kuzatuvlar asosida mualliflik yondashuvi bo'yicha taklif Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "AKTni joriy etish va raqamlashtirish" boshqarmasiga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 03-33-3078-sonli ma'lumotnomasi). Taklif natijasida xalq ta'limi muassasalarida universitetga kirishga tayyorlik darajasini 2024-yilda 10–19% gacha oshirishga erishilgan;

bitiruvchilarning universitetga kirish darajasini baholashda fan-qiziqish-o'zlashtirish integrallashgan modeliga Sertifikat Kompetensiya Indeksi kiritish asosidagi na'munaviy usuli yondashuvi bo'yicha taklif Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "AKTni joriy etish va raqamlashtirish" boshqarmasiga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi

03-33-3078-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 36% o'quvchilar texnik yo'nalish uchun, 28% ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarga mosligi, 22% amaliy kasb-hunar sohasi uchun mosligi va 14% qo'shimcha tayyorlovga muhtoj ekanligini aniqlashga erishilgan;

bitiruvchilarining umumiy natijalarini ijtimoiy-iqtisodiy kuzatuvlar asosida 2030-yilga qadar umumiy qamrov darajasining prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "AKTni joriy etish va raqamlashtirish" boshqarmasiga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 03-33-3078-sonli ma'lumotnomasi). Natijada umumiy qamrov darajasi 2030-yilga kelib 66,1 foizga etishi mumkinligi aniqlangan; <https://uzbmb.uz/> platformasidagi verifikatsiya tizimini Education Management Information System platformasi bilan integratsiyalashgan jarayonining samarali rivojlantirish usuli bo'yicha taklif Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "AKTni joriy etish va raqamlashtirish" boshqarmasiga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 84-02-5036-sonli dalolatnomasi). Natijada xavfsizlik darajasi oshgan, qog'ozbozlik va inson omili 10 foizga qisqartirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 2 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 134 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Xalq ta'limini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xalq ta'limini rivojlantirishning ilmiy yondashuvlar, xalq ta'limi sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar klassifikatsiyasi va O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari tahlil etilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-

tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Aynan shu vazifa va topshiriqlarni amalga oshirish uchun "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi" tashkil etildi va uning ta'limga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishlari sifatida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyalarni o'z tarkibiga oladi. Maktab ta'limining ahamiyatiga asosiy e'tibor jismoniy shaxslarning turli darajadagi maktab ta'limining iqtisodiy daromadlariga qaratiladi. Ushbu ish, Jeykob Minser tomonidan inson kapitalining innovatsion tahlillaridan so'ng, har xil miqdordagi maktab ta'limiga investitsiya qilish shaxsiy daromadga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. So'nggi o'ttiz yil ichida butun dunyo bo'ylab tom ma'noda yuzlab bunday tadqiqotlar o'tkazildi⁷.

Psacharopoulos va Patrinosning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ko'proq maktab o'qish yuqori shaxsiy daromad bilan bog'liq. Mamlakatlar bo'ylab maktabga qaytish darajasi taxminan 10 foizni tashkil etadi va kutilgan yo'llar asosan tanqislikka asoslangan: daromad past daromadli mamlakatlarda, maktab ta'limining past darajalarida va ko'pincha ayollarda yuqoriroq ko'rinadi⁸.

Knighton va Bussière o'zlarining ilmiy asarlarida "15 yoshda yuqori ball olish Kanadalik 19 yoshli o'quvchilarning o'rta maktabdan keyingi ta'lim darajasining sezilarli darajada oshishiga olib kelishini aniqladilar. Ushbu topilma, ayniqsa, biz quyida ko'rib chiqadigan xalqaro taqqoslashlar uchun qiziqarli, chunki tahlil iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda qo'llaniladigan aniq xalqaro testlarga asoslanadi"⁹.

Bundan tashqari, Hanushek, Lavy va Hitomilarning fikriga ko'ra "...kognitiv yutuqlarga qo'shilgan qiymatning pastligi bilan o'lchanadigan past sifatli maktablar Misr boshlang'ich maktablarida maktabni tark etishning yuqori ko'rsatkichlariga olib kelishini aniqladilar. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda aniqlanganidek, oliy ta'lim sifatining to'liq iqtisodiy ta'siri qisman maktabda o'qishni oshirish orqali amalga oshiriladi"¹⁰.

Maktab ta'limini isloh qilishning asosiy maqsadi o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim beradigan innovatsion fikrlaydigan o'qituvchilarni tayyorlashdan iborat. Taraqqiyotning yangi bosqichi vazifalarini inobatga olgan holda zamonaviy o'qituvchi universal mutaxassis bo'lishi, nafaqat o'qitilishi, balki malakasini oshirishi, ya'ni doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, kasbiy bilimini, uslubiy saviyasini, pedagogik malakasini oshirishi

⁷ Mincer, Jacob. "The distribution of labour incomes: a survey with special reference to the human capital approach." *Journal of Economic Literature* 8, no. 1 (March): 1-26.

⁸ Psacharopoulos, George, and Harry A. Patrinos. 2023. "Returns to investment in education: a further update." *Education Economics* 12, no. 2 (August):111-134.

⁹ Knighton, Tamara, and Patrick Bussière. 2006. "Educational Outcomes at Age 19 Associated with Reading Ability at Age 15." *Culture, Tourism and the Centre for Education Statistics Research papers*, Ottawa, Statistics Canada June.

¹⁰ Hanushek, Eric A., Victor Lavy, and Kohtaro Hitomi. "Do students care about school quality? Determinants of dropout behavior in developing countries." Working Paper 12737, National Bureau of Economic Research, Cambridge, MA, December.

lozim. Maktab tizimi samaradorligi bir necha o'n yillar davomida tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan, olimlar va siyosatchilar muvaffaqiyatli ta'lim natijalariga hissa qo'shadigan asosiy omillarni aniqlashga intilmoqda. Maktab samaradorligi tushunchasi maktabning o'quvchilarning bilim olishi, rivojlanishi va farovonligi nuqtai nazaridan o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga qay darajada erisha olishini bildiradi. Tadqiqot natijasi kichikroq miqyosda, ammo ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ta'lim jarayonining sifatiga ta'sir qiluvchi omillar

O'quv jarayoni sifatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bu talabalarning malakasini obektiv baholash omilidir. Bu omil, birinchi navbatda, talabaning o'quv jarayonidan umidlarini shakllantirishga imkon beradi, ikkinchidan, o'quvchilarning oldingi bilimlariga imkon beradi, uchinchi, keyingi o'rganish uchun vazifalarni belgilashda motivatsion vosita bo'lib xizmat qiladi, to'rtinchidan, kichik guruhlariga taqsimlash va ushbu kichik guruhlar darajasini tushunish imkonini beradi, beshinchidan, o'rganish usullari, algoritmlari va vositalarini tanlashga ta'sir qiladi.

O'qituvchilarning jamoaviy ishi. O'qituvchilar ta'lim vazifalariga jamoaviy yondashsa va baholash, materialni taqdim etish va uni talqin qilishda yagona yondashuvlarni ta'minlasa, bu o'quv jarayoni sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. O'qituvchilarning muvofiqlashtirilgan o'zaro hamkorligi har bir

o'qituvchining individual ishiga qaraganda ancha muhim natijalarga erishishga imkon beradi, izchillik talabalar tomonidan motivatsiya va xabardorlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.¹¹


Dissertatsiyaning **“Umumiy o'rta ta'limining rivojlanishi va amaldagi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning statistik ma'lumotlarini taqqoslash, jahonda xalq ta'limini rivojlantirishning joriy tendensiyalari hamda O'zbekistonda Ixtisoslashtirilgan maktablarning amaldagi holati tahlili keltirilgan. Zamonaviy jamiyatda inson kapitalining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida sifatli va uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, xalq ta'limi tizimi har qanday davlatning strategik resursi bo'lib, jamiyatning ilmiy, madaniy va texnologik salohiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumta'lim muassasalari soni shahar hududlarida 2023-yilda 4117 tani tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 7,3 foizga oshgan. Toshkent shahri umumta'lim muassasalari soni Respublika bo'yicha eng ko'p ko'rsatkichga ega bo'lib, 2023-yilda 429 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2010-yildagi Toshkent shahridagi umumtalim muassasalari sonidan 103taga (31,6 foizga) ko'payganini

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yil “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni

ko'rsatadi. Aksincha 2023-yilda Toshkent viloyatidagi umumta'lim muassasalari soni esa 2010-yilga nisbatan 11,9 foizga kamaygan. Respublikamizning shahar hududlarida umumta'lim muassasalarining eng kam o'zgarish ko'rsatkichi Andijon viloyatida kuzatilgan. Unga ko'ra 2010-yilda umumta'lim muassasalar soni 356 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 357tani tashkil qilgan.

Bu esa 2023-yildagi umumta'lim muassasalar soni 2010-yilga nisbatan 0,3 foizga oshganini ko'rsatadi. Respublikamiz eng katta hududga ega viloyatlaridan biri Navoiy viloyatining shahar hududlarida 2010-yildan 2017-yilgacha umumta'lim muassasalarining soni keskin kamaygan. 8 yil ichida umumta'lim muassasalar soni 5 taga ya'ni 4,3 foizga kamaygan. Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni jihatidan eng yuqori o'sish ko'rsatkichi Toshkent shahrida ya'ni 30139 kishini ko'rsatgan va 2010-yilga nisbatan 61.3 foizni tashkil etgan.

2010-2023-yillar oralig'ida o'qituvchilar sonining eng kam o'zgarishini Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rishimiz mumkin, 2023-yildagi o'sish 2010-yildagi o'qituvchilar sonidan 15.4 foizni tashkil qilgan. Eng ko'p o'qituvchilar sonining ko'pligi bo'yicha peshqadam Samarqand viloyati hisoblanadi va 2023-yilda 62409 kishini tashkil etgan. Samarqand viloyati o'qituvchilari sonining 2010-2023-yillar oralig'idagi o'sish ko'rsatkichi Respublikada eng yuqori o'sishga ega bo'lgan Toshkent shahri o'qituvchilari o'sish ko'rsatkichidan 37.5 foizga kamligi kuzatilgan.



2-rasm. O'zbekiston hududidagi umumta'lim muassasalarda o'quvchilar soni (nafar)¹²

XXI asrda xalq ta'limi sohasida global miqyosdagi o'zgarishlar inson kapitaliga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni shakllantirdi. Raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori talablari va pandemiyadan keyingi o'qitish modellarining o'zgarishi natijasida dunyo mamlakatlari o'quv tizimlarini qayta ko'rib chiqmoqda. UNESCO, OECD va Jahon banki hisobotlariga ko'ra, 2020–2024 yillar oralig'ida xalq ta'limining asosiy tendensiyalari quyidagi yo'nalishlarda jamlanmoqda: majburiy ta'lim davomiyligini uzaytirish va o'qitish samaradorligini oshirish, ta'limning raqamli transformatsiyasi va aralash (blended) modellarni joriy etish hamda oliy ta'limga kirish imkoniyatini kengaytirish orqali ijtimoiy faollikni oshirish.

¹² Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Majburiy ta'lim davomiyligi va yillik instruksion soatlar¹³

Mamlakat / Hudud	Majburiy ta'lim davri (yil)	O'rtacha Yillik dars soatlari
OECD o'rtacha	9–13	805 / 916
Janubiy Koreya	6–12 (13 yilga qadar intensiv)	900 / 1,000
Polsha	6–18 (bosqichlarga bog'liq)	780 / 880
Qozog'iston	6–17	700 / 800
O'zbekiston	6–17	720 / 820

– o'quvchilarning “learning poverty” (bilim tanqisligi) ko'rsatkichini kamaytirishga qaratilgan islohotlar;

– ta'lim sifatini o'lchashda xalqaro baholash tizimlarining (PISA, TIMSS, PIRLS) roli ortib borayotgani.

Eng ilg'or davlatlar qatorida Germaniya, Shveytsariya, Kanada, Islandiya, AQSH, Buyuk Britaniya va Estoniya turadi. Ularning o'rtacha ta'lim davomiyligi 13.5–14.3 yilni tashkil etadi, bu esa aholining katta qismi umumiy o'rta va oliy ta'limni to'liq olganini ko'rsatadi. Masalan, Germaniyada bu ko'rsatkich 14.3 yil bo'lsa, Islandiyada kutilayotgan ta'lim yillari 19.1 yilni tashkil etadi – bu eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Bu kabi mamlakatlarda maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimlari uzviy bog'langan bo'lib, yosh avlodning ta'limdan to'laqonli foydalanishini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, O'zbekistonda o'rtacha ta'lim davomiyligi 11.9 yil, kutilayotgan ta'lim esa 12.0 yilni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich O'zbekistonni dunyo reytingida o'rtacha darajaga ega davlatlar qatorida ekanligini bildiradi. Taqqoslash uchun aytadigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada o'rtacha ta'lim davomiyligi 13.4 yil bo'lsa, kutilayotgan ta'lim davomiyligi 17.6 yilni tashkil etadi. Bu esa Britaniyada yosh avlodning katta qismi oliy ta'lim yoki kasb-hunar tizimi orqali o'z bilimlarini uzluksiz rivojlantirayotganini bildiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, xususan maktabgacha ta'lim qamrovining oshishi, 11 yillik majburiy ta'limga qaytish, nodavlat ta'lim tashkilotlarining ko'payishi, kasb-hunar va oliy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi – bularning barchasi yaqin yillarda mazkur ko'rsatkichlarni sezilarli yaxshilanishiga olib kelmoqda. Tahlilning ijobiy yakunida shuni aytish joizki, O'zbekiston past rivojlanish ko'rsatkichlariga ega davlatlar bilan solishtirilganda ancha yuqori pog'onada turadi. Masalan, Somali (1.9 yil), Mali (1.6 yil) yoki Niger (1.3 yil) singari mamlakatlarda ta'limning deyarli yo'qligi inobatga olinsa, O'zbekiston aholisi o'rtasida ta'limga intilish kuchli, tizimga bo'lgan ishonch esa barqaror.

2022/2023 o'quv yilida agentlik maktablarining aniq fanlar yo'nalishiga qabul 5–11-sinflarga, tabiiy fanlar yo'nalishiga 7–11-sinflarga, keyingi o'quv yillarida tegishincha 5- va 7-sinflarga amalga oshiriladi. Agentlik maktablariga o'quvchilarni qabul qilish aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda mantiqiy fikrlash bo'yicha o'tkaziladigan kirish imtihonlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Ro'yxati agentlik tomonidan tasdiqlanadigan xalqaro, mintaqaviy yoki asosiy fan olimpiadalarining uchinchi (viloyat) bosqichida g'olib bo'lgan (1, 2, 3-o'rin) umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'zi ta'lim oladigan hududida

¹³ Compulsory education, duration(years) Worl Bank Open ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

joylashgan agentlik maktablariga umumiy qabul parametrlari doirasida kirish imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi.

2-jadval

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'sish tendensiyasi¹⁴


Yil	Maktablar soni (jami)	Prezident maktab-lari	Ijod maktab-lari	Fan (STEM) ixtisoslashgan maktablar	O'quvchilar soni (ming nafar)	Bir o'ringa talabgor-lar soni	Universitet-ga kirgan bitiruv-chilar (%)
2020	62	4	3	55	16,8	4,5	68
2021	108	9	5	94	25,3	6,1	71
2022	156	11	7	138	37,4	8,3	74
2023	194	14	9	171	45,9	9,6	78
2024	205	14	9	182	49,2	10,4	80
2025	230	14	9	205	54,0	11,2	83

O'sish tendensiyasi 2020–2025 yillar davomida ixtisoslashgan maktablar soni 3,7 baravar oshgan (62 tadan 230 taga). Qamrov kengayishi esa o'quvchilar soni 16,8 mingdan 54 ming nafargacha oshgan, bu 5 yil ichida 3,2 barobar o'sish demakdir. Tanlov darajasi bir o'ringa talabgorlar soni 4,5 dan 11,2 nafargacha oshib, o'quvchilarning ushbu maktablarga bo'lgan qiziqishi kuchaygan. Universitetga kirish natijasi: Bitiruvchilarning oliy ta'limga kirish ko'rsatkichi 2020-yildagi 68% dan 2025-yilda 83% gacha oshgan. Bu o'sish ixtisoslashgan ta'lim sifati va yo'nalishli tayyorgarlik samaradorligining isboti sifatida qayd etiladi. O'sish sur'ati juda jadal ekanligi ko'rindi. Ixtisoslashgan maktablar soni va o'quvchilar qamrovi izchil o'sib bormoqda, bu esa iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni oliy ta'lim tizimiga tayyorlashdagi sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishini anglatadi. 2025-yilga kelib, ushbu maktablar bitiruvchilarining kamida 83% oliy ta'lim yoki texnikum tizimiga kirishi prognoz qilinmoqda.

Ta'limni yo'nalishli tayyorlash, sertifikat asosida baholash va kasbiy orientatsiya mexanizmlarini kuchaytirish orqali bu ko'rsatkichni 2027-yilga kelib 87–90% gacha oshirish mumkin. Bu erda ixtisoslashgan maktablar (Prezident, Ijod, STEM va boshqa profilli maktablar) faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini 2020–2025 yillar oralig'ida tahlil qilingan. Har bir grafik ostida qisqacha ilmiy tahlil asosida amalga oshirilgan.

Ixtisoslashgan maktablar soni 2020–2025 yillar mobaynida ixtisoslashgan maktablar soni sezilarli o'sish ko'rsatdi: 62 tadan 230 tagacha. Bu o'sish strategik investitsiyalar, yangi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarini tashkil etish va mavjud tarmoqni kengaytirishga bog'liq. Raqamlarning barqaror oshishi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning ta'limini chuqurlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq tez kengayish sifat nazorati va o'qituvchilarni malakasini oshirish bilan uyg'unlashishi lozim. Ixtisoslashgan maktablardagi O'quvchilar soni 16.8 mingdan 54 minggacha oshdi — ya'ni 3.2 barobar o'sish. Bu trend ixtisoslashgan maktablarga qiziqish, kengayish va qabul imkoniyatlarining ortishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu o'sish maktab resurslari, sinf hajmi va o'qituvchilar yuklamasiga bosim soladi. Sifatni saqlash maqsadida o'qituvchilarni qayta tayyorlash zarur.

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. Ixtisoslashtirilgan maktablar soni 2020-2025 yillar¹⁵


Ixtisoslashtirilgan maktablar sonining 2020–2025-yillardagi o‘shish tendensiyasi grafikdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar soni 2020–2025-yillar davomida barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. 2020-yilda bunday maktablar soni atigi 65 ta bo‘lgan. 2021-yilda ular soni 110 taga etgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 68% o‘shishni ko‘rsatadi. 2022-yilda maktablar soni 155 taga, ya’ni yana 40,9% ga oshgan. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 190 taga etib, o‘shish sur’ati biroz sekinlashgan bo‘lsa-da, tizimning kengayishi davom etgan. 2024-yilda maktablar soni 205 taga etgan, bu 8% lik barqaror o‘shishdir. 2025-yil bo‘yicha esa ularning soni 230 taga etgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim muassalarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida maktab bitiruvchilarining universitetga kirishga tayyorligini aniqlash va natijadorligini oshirish, bitiruvchilarining umumiy natijalarini ijtimoiy-iqtisodiy kuzatuvlar asosida prognozlash va platformadagi verifikatsiya tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslari kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Davlat ta’lim standartlariga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar quyidagi asosiy fanlarni o‘zlashtiradilar:

- Ona tili va adabiyot – nutq madaniyati, yozma va og‘zaki fikrlashni rivojlantiradi;
- Matematika (arifmetika, algebra, geometriya) – tahliliy va mantiqiy fikrlash asosini shakllantiradi;
- Fizika va kimyo – tabiat hodisalarini ilmiy tushunish, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash ko‘nikmasini beradi;
- Biologiya – hayotiy jarayonlarni tushunish, ekologik tafakkurni rivojlantiradi;

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi ochiq ma’lumotlar portal ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



4-rasm. Maktab bitiruvchilarining universitetga kirishga tayyorligini aniqlash va natijadorligini oshirishning sxematik ko‘rinishi¹⁶

- Tarix va huquq asoslari – milliy o‘zlik, huquqiy tafakkur va ijtimoiy faollikni mustahkamlaydi;
- Chet tili (ko‘p hollarda ingliz tili) – kommunikativ salohiyatni kengaytiradi va xalqaro axborot almashinuviga tayyorlaydi;
- Informatika va axborot madaniyati – zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish asoslarini o‘rgatadi.

Bu omillar uyg‘unlashgan holda o‘quvchini oliy ta’lim bosqichiga tayyorlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni 10–11-sinflardan boshlab tizimli tayyorlash natijasida ularning oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari 25–30 foizga yuqori bo‘ladi. Maktab bitiruvchilarini universitetga kirishga tayyorlash jarayoni uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Asosiy bilimlarni shakllantirish bosqichi (5–9-sinflar). Ushbu bosqichda o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasi, tahliliy fikrlash va o‘zini anglash jarayonlari

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

shakllanadi. Fanning asosiy tushunchalari, formulalar, nazariy bilimlar o'zlashtiriladi.

2. Kasbiy yo'nalish va fanlarga ixtisoslashish bosqichi (10–11-sinflar). O'quvchilar tanlagan yo'nalishlariga mos fanlarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Maktablarda profil sinflar (matematika-fizika, chet tili-tarix kabi) tashkil etiladi. Shu davrda test topshiriqlari, yozma ishlar, amaliy mashg'ulotlar orqali tayyorgarlik amalga oshiriladi.

3. Psixologik va imtihon oldi tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda imtihon sharoitida ishlash ko'nikmalari, vaqtni to'g'ri taqsimlash, mustahkam o'ziga ishonchni shakllantirish maqsad qilinadi.

4. 2021–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida bitiruvchilarni universitetga tayyorlash bo'yicha raqamli asosdagi tayyorlov mexanizmlari joriy etildi. Quyida tayyorlov shakllari keltirilgan:

3-jadval

Xalq ta'limi tizimida maktab bitiruvchilarini universitetga tayyorlash bo'yicha raqamli asosdagi tayyorlov tarkibi¹⁷

Tayyorlov shakli	Tavsifi	Raqamli texnologiyalar ishtiroki
Maxsus tayyorlov kurslari	11-sinf o'quvchilari uchun OTMga kirish fanlari bo'yicha qo'shimcha darslar	EduON, Ziyonet, EduMarket orqali masofaviy darslar
Onlayn test platformalari	DTM formatidagi testlar bilan sinov	abitur.dtm.uz, EduTest, QuizON
Raqamli baholash tizimi	O'quvchilarning bilim darajasini AI asosida tahlil qilish	MyEdu.uz orqali avtomatik reyting
Fanlar kesimida mustahkamlash	Har bir fanning asosiy bloklari bo'yicha individual takrorlash	Smart Learning platformasi
Mentorlik dasturi	OTM talabalari tomonidan 11-sinflarga yo'l-yo'riq berish	Telegram/Google Meet orqali raqamli aloqa

